KAPDEPO
INVESTMENT COMPANY

EMITENTNING
TAHLILIY SHARHI



O‘SISHNING TESKARI TOMONI

“Anor Bank”

www.kapdepo.uz

Sentabr, 2026

Emitent haqida

“Anor Bank” AJ 2020-yildan buyon O‘zbekiston bozorida faoliyat yuritadi. Bank dastlab masofaviy xizmat ko‘rsatishga asoslangan raqamli bank sifatida rivojlangan. Asosiy faoliyati jismoniy shaxslar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga iste’mol kreditlari va kichik hajmdagi qarzlar ajratish bilan bog‘liq. 2025-yil yakunida bank kredit portfelining 75% dan ortig‘i aynan shu segmentlarga to‘g‘ri kelgan. So‘nggi vaqtlarda esa Anor Bank kredit portfelini diversifikatsiya qilish uchun kichik va o‘rta biznesni kreditlashni ham kengaytirmoqda. 2026-yil iyul oyi oxirida bank O‘zbekiston kredit bozorining qariyb 2%ni, depozitlar bozorining esa 3%ni egallagan.

So‘nggi bir yil ichida Anor Bank aksiyadorlari tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Dastlab bank aksiyalarining 99,38%ga yaqini Qahramonjon Olimovga tegishli edi. 2025-yil dekabr oyida u o‘z ulushining 50%ni Niderlandiyada ro‘yxatdan o‘tgan Bekamin B.V. kompaniyasiga sotdi. Shundan so‘ng Olimovning ulushi 49,38%gacha kamaydi. 2026-yil mart oyida uning ulushi vaqtincha 52,36%ga oshgan bo‘lsa, aprel oyida yana 49,42%ni tashkil etdi. Hozirda Anor Bank aksiyalarining 50% Bekamin B.V.ga, 49,42% Qahramonjon Olimovga, qolgan 0,6% esa Kapital Sug‘urtaga tegishli.

Bankning xalqaro kredit reytingi

Fitch Ratings

Reyting prognozi 2026-yil 17-sentabrda pasaytirildi


“CCC+”

Emitentning xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli defolt reytinglari (IDR)


Bank faoliyatining asosini kreditlash tashkil etadi. 2026-yil iyul oyi oxiriga kelib, bankning yalpi kredit portfeli bir yil avvalgi 8,58 trln so‘mdan 12,4 trln so‘mgacha oshgan. Shu davrda depozit bazasi ham 11,2 trln so‘mdan 16,1 trln so‘mgacha o‘sdi. 2026-yilning birinchi yarmi yakunida bank aktivlari 18,7 trln so‘mni tashkil etib, bir yil ichida 49%ga oshgan. Shu bilan birga, kreditlar bo‘yicha ehtimoliy zararlarni baholash xarajatlari ikki baravar ko‘payib, 287,7 mlrd so‘mga yetdi. Kreditlash hajmining o‘sishi fonida muammoli kreditlar ulushi ham bir yil avvalgi 4,2%dan 7,6%gacha oshdi.

Kredit portfelining tez o‘sishi va kapital zaxirasining qisqarishi fonida xalqaro Fitch Ratings agentligi 2026-yil 17-sentabrda Anor Bankning uzoq muddatli reytingini “B-”dan “CCC+”gacha pasaytirdi. Bankning barqarorlik reytingi ham b- dan ccc+ gacha tushirildi. Fitch qarorining asosiy sabablari bank kapitalizatsiyasi, kredit portfelining tez o‘sishi va aktivlar sifatining yomonlashuvi bilan bog‘liq. Ushbu omillar hisobotning keyingi qismida batafsil ko‘rib chiqiladi.

Bank kredit portfeli o‘sish dinamikasi (mlrd so‘m)



Bank depozit portfeli o‘sish dinamikasi (mlrd so‘m)



KAPDEPO INVESTMENT COMPANY

Fitch Ratings: Anor Bank reytingi pasayishining sabablari

Fitch tomonidan e’tiroz uyg‘otgan asosiy ko‘rsatkichlardan biri bankning kapitalizatsiyasi bo‘ldi. Agentlik metodologiyasiga ko‘ra, Anor Bankning asosiy kapital ko‘rsatkichi 2024-yil oxiridagi 4,3%dan 2025-yil oxirida 0,9%gacha pasaygan. Shu bilan birga, birinchi darajali kapitalning regulyativ ko‘rsatkichi 10,4%ni tashkil etib, 10%lik minimal talabdan faqat biroz yuqori bo‘lgan.

Bu fonda kredit portfelining o‘sishi yanada sezilarli ko‘rinadi. Fitch ma’lumotlariga ko‘ra, yalpi kreditlar 2025-yil davomida 50%ga, so‘nggi to‘rt yil ichida esa 10 baravardan ko‘proqqa oshgan. Kapital esa ancha sekin o‘sgan, natijada ehtimoliy zararlarni qoplash uchun kapital zaxirasi cheklangan.

Shu bilan birga, kredit portfelining sifati ham yomonlashgan. Qadrsizlangan kreditlar ulushi 2024-yil oxiridagi 3%dan 2025-yil oxirida 5%gacha, Stage 2 toifasidagi kreditlar ulushi esa 4%dan 9%gacha oshgan. Risk qiymati ham 3,6%dan 4,5%gacha ko‘tarilgan. Fitch bahosiga ko‘ra, avval berilgan kreditlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish jarayoni davom etar ekan, aktivlar sifati bo‘yicha bosim saqlanib qolishi mumkin.

Kredit riskining oshishi allaqachon bankning daromadliligiga ta’sir qilgan. Operatsion foyda 2024-yilda riskni hisobga olgan holdagi aktivlarning 2,4%ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 0,3%gacha tushgan. Fitch buni risk qiymatining oshishi, marjaning qisqarishi va depozitlar orqali jalb qilinadigan mablag‘lar qiymatining ko‘tarilishi bilan izohlaydi. Bunda qadrsizlanishdan oldingi foyda kredit risklari bo‘yicha xarajatlar tomonidan deyarli to‘liq qoplangan.

Shu bilan birga, likvidlik holati nisbatan barqarorroq ko‘rinadi. 2026-yilning birinchi yarmi yakunida likvid aktivlar jami aktivlarning qariyb 15%ini tashkil etgan. Bankning asosiy moliyalashtirish manbai davlatga tegishli bo‘lmagan mijozlar depozitlari bo‘lib qolmoqda. 2025-yil oxirida chakana depozitlar bank majburiyatlarining 61%ini tashkil etgan.

Xulosa

Umuman olganda, Fitch Anor Bank reytingining keyingi dinamikasini, avvalo, bank moliyaviy ko‘rsatkichlarini qanchalik barqaror tiklay olishiga bog‘laydi. Reytingni oshirish uchun asosiy kapital ko‘rsatkichi 6%dan yuqori darajada barqaror bo‘lishi kerak. Bunga kreditlashning yanada mo‘tadil sur’atlarda o‘sishi yoki aksiyadorlar tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash yordam berishi mumkin.

Kapital bazasini mustahkamlash uchun bank allaqachon chora-tadbirlar rejasini tasdiqlagan. 2026-yil 9-sentabr kuni Kuzatuv kengashi aksiyador tomonidan kapitalga 100 mlrd so‘m miqdorida mablag‘ kiritish va nomoddiy aktivlarni sotishni ma’qulladi. Fitch fikricha, ushbu choralar amalga oshirilsa, 2026-yil oxiriga kelib asosiy kapital ko‘rsatkichi qariyb 5%gacha oshishi mumkin.

Shu bilan birga, reyting uchun xavflar ham saqlanib qolmoqda. Agar bank kapitalni tiklash rejasini o‘z vaqtida amalga oshira olmasa yoki likvidlik holati yanada yomonlashsa, Fitch reytingni pasaytirishi mumkin.

Shunday qilib, reytingning yaqin istiqboldagi dinamikasi, avvalo, bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari, kreditlash sur’atlari va risklarni nazorat qila olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Fitch davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishni esa reytingni yaxshilashning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqmaydi.

KAPDEPO
INVESTMENT COMPANY



+998 55-511-02-02
www.kapdepo.uz
info@kapdepo.com
@Kapdepo
Kapdepo

Mazkur material ”KAPITAL-DEPOZIT” MChJ tahlilchisi Kamronbek Yo’ldoshev tomonidan tayyorlangan. Kompaniya ushbu hisobotda har qanday qimmatli qog'oz yoki kompaniyaga nisbatan ifodalangan barcha pozitsiyalar tahlilchining har qanday tahlil qilingan kompaniya yoki qimmatli qog’oz bo'yicha shaxsiy qarashlarini aks ettirishini e'lon qiladi. Har bir tahlilchi va/yoki har qanday tahlilchi bilan bog'langan shaxslar bozor ma'lumotlarini to'plash, to'plash va sharhlash uchun treyderlar va boshqa xodimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin.

Tahlilchilarning hech biri, kompaniya, uning direktorlari va xodimlari ushbu Hisobotdan yoki uning mazmunidan har qanday foydalanish natijasida yuzaga keladigan yoki ushbu Hisobot bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday zararlar uchun hech qanday tarzda javobgar bo'lmaydi. Har bir tahlilchi va/yoki unga aloqador shaxslar ushbu Hisobotga muvofiq choralar ko‘rishi yoki ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlardan, shuningdek, ushbu Hisobot tuzilgan tahliliy ish natijalaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlar har qanday sotib oluvchi yoki boshqa shaxs tomonidan qimmatli qog'ozlarga nisbatan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi. Ushbu Hisobot kompaniya biznesi, uning aktivlari yoki qimmatli qog'ozlari qiymatini baholash emas.Olingan mukofotning hech bir qismi ushbu Hisobotda bildirilgan muayyan tavsiya yoki fikr bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq emas va kelgusida ham bog‘liq bo‘lmaydi. Tahlilchilarning ish haqi “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ mijozlari bo‘lgan investorlarga imtiyozlar berishga qaratilgan faoliyat va xizmatlarga qarab belgilanadi.

“KAPITAL-DEPOZIT” MChJning barcha xodimlari singari, tahlilchilar ham “KAPITAL-DEPOZIT” MChJ rentabelligiga qarab haq oladilar, bu kompaniya bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa faoliyatdan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi. Tahlilchilar yoki ularning affillangan kompaniyalari yoki boshqa shaxslar sotuvga qo'yilgan qimmatli qog'ozlari bo'yicha anderrayting guruhining a'zolaridir yoki bo'lishi mumkin. Tahlilchilar kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini kelgusida ommaviy joylashtirishda qatnashish huquqiga ega.

Ushbu Hisobotda keltirilgan har qanday mulohazalar yoki fikrlar ushbu Hisobot nashr etilgan paytda dolzarb hisoblanadi. Agar ushbu Hisobotning sanasi eskirgan bo'lsa, qarashlar va mazmun tahlilchining hozirgi fikrini aks ettirmasligi mumkin. Ushbu ma'lumot moliyaviy yoki tijorat xarakterdagi joriy voqealarning to'liq xulosasi emas va shuning uchun foydalanilmasligi kerak. “Kapital-Depozit” MChJ O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorida qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining quyidagi litsenziyalari asosida faoliyat yuritayotganligi haqida xabar beradi: brokerlik va depozitarlik faoliyati uchun 27.04.2015-yildagi 1196-son; investitsiya maslahatchisi faoliyatini amalga oshirish uchun 27.04.2015 yildagi 1197-son; investitsiya aktivlarini ishonchli boshqarish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun 2017-yil 29-dekabrdagi 1296-son.